

AYOLARNING HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDA XALQARO VA MILLIY HUQUQ ROLI

Boboqulova Nargiza Norbuta qizi

Samarqand Davlat Universiteti

yuridik fakulteti 4-bosqich talabasi

boboqulovanargiza86@gmail.com

Annotatsiya; Ayollar huquqlari bugungi kunda nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Dunyo bo‘ylab gender tengligini ta’minlash va ayollar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan ko‘plab huquqiy tizimlar ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, hali ham turli mamlakatlarda ayollar iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy jabhalarda diskriminatsiyaga uchrashmoqda. Ushbu maqolada xalqaro va milliy huquqning ayollar huquqlarini himoya qilishdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Xalqaro darajada BMTning CEDAW konvensiyasi, Pekin deklaratsiyasi va Yevropa Ittifoqi qonunchiligi kabi huquqiy mexanizmlar gender tengligini ta’minlashga qaratilganligi yoritiladi. Milliy huquq sohasida esa O‘zbekiston Konstitutsiyasi, Mehnat kodeksi va oilaviy zo‘ravonlikka qarshi qonunlar ayollar huquqlarining himoyasini ta’minlashga xizmat qilishi ko‘rsatiladi. Xalqaro va milliy huquqning o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinib, xalqaro normalarning milliy qonunchilikka tatbiq etilishidagi muammolar va ularni samarali amalga oshirish bo‘yicha takliflar beriladi. Ushbu tadqiqot natijalari ayollar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan tavsiyalarni ilgari suradi chuqur fikr va mulohazalar yoritib berilgan.

Kalit so’zi: BMTning CEDAW konvensiyasi, Pekin deklaratsiyasi, Yevropa Ittifoqi, gendir tenglik.

РОЛЬ МЕЖДУНАРОДНОГО И НАЦИОНАЛЬНОГО ПРАВА В ЗАЩИТЕ ПРАВ ЖЕНЩИН

Бобокулова Наргиза Норбута
кызы

Самаркандский государственный университет

, Юридический факультет, 4-й курс

boboqulovanargiza86@gmail.com

Аннотация: Права женщин остаются актуальной проблемой не только на национальном, но и на международном уровне. Несмотря на разработку множества правовых механизмов по всему миру, направленных на обеспечение гендерного равенства и защиту прав женщин, дискриминация женщин в экономической, политической и социальной сферах по-прежнему сохраняется во многих странах. В данной статье анализируется роль и значение международного и национального права в защите прав женщин. Рассматриваются международные правовые механизмы, такие как Конвенция ООН CEDAW, Пекинская декларация и законодательство Европейского Союза, направленные на обеспечение гендерного равенства. В контексте национального законодательства исследуются Конституция Узбекистана, Трудовой кодекс и законы о борьбе с домашним насилием как инструменты защиты прав женщин. Анализируется взаимосвязь международного и национального права, поднимаются вопросы внедрения международных норм в национальное законодательство, а также предлагаются решения для их эффективной реализации. Результаты исследования направлены на усовершенствование правовых механизмов защиты прав женщин и содержат глубокие размышления и рекомендации.

Ключевые слова: Конвенция ООН CEDAW, Пекинская декларация, Европейский Союз, гендерное равенство.

THE ROLE OF INTERNATIONAL AND NATIONAL LAW IN PROTECTING WOMEN'S RIGHTS

Boboqulova Nargiza Norbuta qizi

Samarkand State University, Faculty of Law, 4th-year student

boboqulovanargiza86@gmail.com

Abstract: Women's rights remain a crucial issue not only at the national level but also on an international scale. Although numerous legal frameworks have been developed worldwide to ensure gender equality and protect women's rights, discrimination against women in economic, political, and social spheres persists in various countries. This article analyzes the role and significance of international and national law in safeguarding women's rights. It highlights international legal mechanisms such as the UN CEDAW Convention, the Beijing Declaration, and European Union legislation aimed at ensuring gender equality. In the national legal context, Uzbekistan's Constitution, the Labor Code, and laws against domestic violence are examined as instruments for protecting women's rights. The interconnection between international and national law is analyzed, addressing challenges in implementing international norms into national legislation and proposing solutions for their effective enforcement. The findings of this study offer recommendations for improving legal mechanisms to enhance women's rights protection, presenting in-depth insights and considerations.

Keywords: UN CEDAW Convention, Beijing Declaration, European Union, gender equality.

“Inson huquqlari va gender tengligini ta’minlash – davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeini yanada oshirish uchun mustahkam huquqiy asos yaratish zarur.”

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

XXI asrda inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash global kun tartibining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda va shuni aytish joizki ayollarning huquqlari inson huquqlarining ajralmas qismi bo‘lib, ularning jamiyatdagi o‘rni va mavqeini mustahkamlashga qaratilgan qonuniy va ijtimoiy kafolatlarni o‘z ichiga oladi. Bu huquqlar ayollarning teng imkoniyatlarga ega bo‘lishi, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi, zo‘ravonlik va kamsitishlardan himoyalanishini ta’minlaydi. Jamiyat taraqqiyoti va barqarorligi ayollar huquqlarining to‘laqonli ta’minlanishi bilan bevosita bog‘liq va shu bilan birlgilikda Ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish masalasi, ularning jamiyatning barcha sohalarida to‘liq ishtirokini ta’minlash va gender tengligini mustahkamlash dolzarb muammolar qatoriga kiradi. Ayollarga ta’lim olish, mehnat qilish, sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish kabi imkoniyatlar yaratilishi nafaqat ularning hayot sifatini yaxshilaydi, balki butun jamiyatning rivojlanishiga xizmat qiladi. Ayollarning iqtisodiy faolligi mamlakat iqtisodiyotining o‘sishiga, ularning siyosiy jarayonlarda ishtiroki esa demokratik institutlarning mustahkamlanishiga hissa qo‘shamoqda.

Ayollarning huquqlari haqida gapirilganda eng avvalo gendir tenglik masalasiga to’xtalib o’tishimiz kerak. Gender tengligi masalasi butun dunyoda barqaror rivojlanish va inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Gendir tenglik jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, gender tengligi ta’minlangan davlatlarda iqtisodiy o‘sish tezlashadi, ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanadi va demokratiya rivojlanadi. O‘zbekistonda ham ushbu yo‘nalishda muhim islohotlar olib borilmoqda, biroq hali ham to‘liq gender

tengligiga erishish uchun qo'shimcha chora-tadbirlar zarur. Shunday qilib, gender tengligini ta'minlash bo'yicha xalqaro va milliy tajribalarni chuqur tahlil qilish, ayollar huquqlarini mustahkamlashga qaratilgan islohotlarni davom ettirish va gender stereotiplarini kamaytirish muhim vazifalar qatoriga kiradi. Bu jarayonda ilmiy tadqiqotlar va tahliliy ishlar muhim rol o'ynaydi.

BMT tomonidan qabul qilingan bir qator xalqaro hujjatlar gender tengligini ta'minlashga qaratilgan. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1979-yilda qabul qilingan "Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiya" (CEDAW) ayollar huquqlarini himoya qilish bo'yicha eng muhim xalqaro hujjatlardan biridir. Ushbu konvensiya ayollarga nisbatan har qanday kamsitishlarni yo'q qilish va ularning erkaklar bilan teng huquqlarga ega bo'lishini ta'minlashga qaratilgan. CEDAW quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi: Ayollarga nisbatan har qanday kamsitishlarni taqiqlash; gender tengligini ta'minlash uchun davlatlar zimmasiga huquqiy majburiyat yuklash; ayollarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotdagi ishtirokini kengaytirish; ta'lim, sog'liqni saqlash, mehnat va oilaviy hayotda tenglikni ta'minlash. CEDAW komiteti ushbu konvensiyaning ijro etilishini nazorat qiladi. Davlatlar har yili o'z hisobotlarini taqdim etish orqali majburiyatlarini qay darajada bajarayotganliklarini ko'rsatadilar. Ushbu konvensiya ko'plab davlatlarda ayollar huquqlarini mustahkamlash va milliy qonunchilikni gender tengligi tamoyillariga muvofiqlashtirishga yordam berdi.¹

Ayollar huquqlarini himoya qilishda yana bir xalqaro hujjat, 1995-yilda Xitoyning Pekin shahrida o'tkazilgan To'rtinchchi xalqaro ayollar konferensiyasida qabul qilingan Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasi ayollar huquqlarini ilgari surish bo'yicha muhim hujjatdir. Ushbu hujjat gender tengligi bo'yicha 12 ta asosiy yo'nalishni belgilab bo'lib: Ayollar va qashshoqlik; Ta'lim va trening; Sog'liqni saqlash; Zo'ravonlikning oldini olish; Qurolli mojarolardagi ayollar huquqlari; Ayollar

¹ BMTning "Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etish to'g'risida"gi Konvensiyasi (CEDAW). (1979)

iqtisodiyoti; Ayollar va qaror qabul qilish; Institutiv mexanizmlar; Ayollar huquqlari va inson huquqlari; Ayollar va OAV; Atrof-muhit va barqaror rivojlanish; Qiz bolalarning huquqlari. Pekin deklaratsiyasi davlatlarga gender tengligi bo‘yicha amaliy choralar ko‘rishni tavsiya etadi va milliy strategiyalarni ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu platforma xalqaro hamjamiyat tomonidan gender tengligini ta’minlash borasida eng katta dasturlardan biri hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqi va boshqa xalqaro tashkilotlarning ayollar huquqlariga oid huquqiy mexanizmlari haqida to’xtalib o’tadigan bo’lsak, Yevropa Ittifoqi (YI) gender tengligini ta’minlash bo‘yicha keng qamrovli huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqgan. YIga a’zo davlatlar gender tengligini himoya qilish bo‘yicha turli xalqaro va mintaqaviy hujjatlarni imzolagan. Jumladan, YI quyidagi huquqiy vositalar orqali ayollar huquqlarini mustahkamlashga intiladi: Yevropa Gender Tengligi Strategiyasi (2020-2025) – ayollarga nisbatan kamsitishlarni bartaraf etish va gender tengligini ta’minlash uchun qabul qilingan dastur. Istanbul Konvensiyasi (2011) – ayollarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha Yevropa Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro shartnoma. Ayollar va erkaklar uchun teng ish haqi tamoyili – YI qonunchiligi asosida gender asosidagi maosh farqini yo‘q qilishga qaratilgan tashabbus. Boshqa xalqaro tashkilotlar, masalan, Afrika Ittifoqi, Amerika Davlatlari Tashkiloti va Islom Hamkorlik Tashkiloti ham ayollar huquqlarini himoya qilishga oid o‘z mexanizmlarini ishlab chiqqan. Ular orasida Maputo Protokoli (Afrika Ittifoqi tomonidan qabul qilingan) va Belem do Para Konvensiyasi (Amerika qit’asidagi ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi hujjat) muhim ahamiyatga ega. Ayollar huquqlarini himoya qilish va gender tengligini ta’minlash xalqaro huquqiy mexanizmlar orqali amalga oshirilmoqda. CEDAW konvensiyasi, Pekin deklaratsiyasi va Yevropa Ittifoqi kabi tashkilotlarning huquqiy mexanizmlari ayollar huquqlarini mustahkamlash uchun muhim vositalardir. Ushbu huquqiy hujjatlar davlatlarning gender tengligi yo‘lida muayyan majburiyatlarni zimmasiga yuklaydi va global darajada ayollarning huquqlarini himoya qilishga xizmat qilmoqda.

Ayollar huquqularini himoya qilishda xalqaro qonunchilik bilan bir qatorda milliy qonunchilik ham ko'plab islohatlar amalga oshirilmoqda desak mubolag' bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ayollarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan huquqiy asoslarni belgilaydi. Asosiy Qonunning 18-moddasida barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi ta'kidlanadi. Shuningdek, 46-moddada davlatning ayollar va erkaklar teng huquqliligin kafolatlash majburiyati mustahkamlangan.² Ushbu konstitutsiyaviy normalar mamlakatda gender tengligini ta'minlashga qaratilgan boshqa qonun hujjatlarining ishlab chiqilishiga zamin yaratgan.

O'zbekiston hukumati tomonidan qabul qilingan «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida»gi Qonun gender siyosatining asosiy huquqiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Ushbu hujjat gender tengligini ta'minlash, ayollarga nisbatan kamsitishlarni oldini olish va ularning ijtimoiy hayotdagi rolini kuchaytirish bo'yicha muhim chora-tadbirlarni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi gender tengligini ta'minlashga yo'naltirilgan muhim huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi. Mehnat kodeksida kamsitishga yo'l qo'ymaslik, ayollarning mehnat huquqlarini himoya qilish hamda ish joyida teng imkoniyatlar yaratish bo'yicha qator moddalar belgilangan. Xususan, Mehnat kodeksining 6-moddasida ish joyida kamsitishga yo'l qo'ymaslik tamoyili mustahkamlangan bo'lib, bunda jins, millat, irqi, diniy e'tiqod yoki boshqa omillar asosida diskriminatsiya qilish taqiqlangan. Shuningdek, homilador ayollar va yosh bolali ayollarga alohida mehnat sharoitlari yaratish, ular uchun qisqartirilgan ish soatlari belgilash va ish joyida ona-bola xonalari tashkil etish kabi imtiyozlar berilishi nazarda tutilgan. Shu bilan birga, O'zbekistonda gender tengligini ta'minlash bo'yicha qator davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Xususan, ayollarni tadbirkorlikka jalb

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023)

etish, ularning kasbiy rivojlanishiga ko‘maklashish va ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash bo‘yicha muhim tashabbuslar ilgari surilmoqda.

O‘zbekistonda oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurash bo‘yicha qator qonunlar qabul qilingan bo‘lib, ular xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi. 2019-yilda qabul qilingan «Xotin-qizlarni zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonun oilaviy zo‘ravonlikni oldini olish, jabrlangan ayollarni himoya qilish va ularning huquqlarini tiklashga qaratilgan muhim huquqiy asoslardan biridir. Ushbu qonunga muvofiq, jabrlangan ayollar vaqtincha boshpanalar bilan ta’milanishi, psixologik va huquqiy yordam olishi mumkin. Shuningdek, oilaviy zo‘ravonlik sodir etgan shaxslar ma’muriy va jinoiy javobgarlikka tortilishi belgilangan. Mazkur qonunning samaradorligini oshirish maqsadida, maxsus reabilitatsiya markazlari, ayollarni himoya qilish bo‘yicha maxsus telefon liniyalari va maslahat markazlari tashkil etilgan.³ O‘zbekiston hukumati oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurashda jamoatchilik va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ish olib borayotgan bo‘lib, ushbu masalada samarali profilaktika choralari va huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish ustida ish olib bormoqda. Bundan tashqari, oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurashda ijtimoiy tarmoqlardagi targ‘ibot, ta’lim muassasalarida huquqiy savodxonlikni oshirish va jamiyatda gender tengligini mustahkamlashga qaratilgan dasturlar alohida o‘rin tutadi.

Yuqorida ayollar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha xalqar va milliy qonunchilik haqida qisqasa ma’lumotlarga ega bo’ldik. Bu ma’lumotlardan keyin ayollarning huquqlarini himoya qilishda, xalqaro va milliy qonunchilikning o‘zaro bog‘liqligi haqida biroz to’xtalib o’tsak, xalqaro huquq va milliy huquq o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning integratsiyasi huquqiy tizimning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ko‘pgina davlatlar xalqaro huquq normalarini milliy qonunchilikka integratsiya qilish uchun turli usullardan foydalanadilar. Monistik

³ O‘zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida"gi Qonuni. (2019)

yondashuvga ega davlatlarda xalqaro huquq normalari bevosita milliy huquq tizimining bir qismiga aylanadi. Dualistik tizimda esa xalqaro huquq normalarini tatbiq etish uchun ularni milliy qonunchilikka moslashtirish talab etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalar va konvensiyalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilishda faol ishtirok etib kelmoqda. Masalan, O‘zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalar konstitutsiyaviy huquqiy bazaga muvofiq ravishda milliy qonunchilikka integratsiya qilinadi. Shu jihatdan, ayollar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha xalqaro huquqiy me’yorlarni milliy qonunchilikka singdirish dolzarb masala hisoblanadi.

Bugungi kunda ayollarning huquqlarini himoya qilishda xalqaro va milliy qonunchilikda ko’plab islohatlar olib borish bilan birga, ayollar huquqlarini ta’minlashda bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ular ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy omillar bilan bog‘liqdir. Ulardan ba’zilari quyidagilardir: Gender tengligining to‘liq ta’minlanmagani, ayollarning iqtisodiy va siyosiy faoliyatda yetarlicha ishtirok eta olmasligi; Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik va kamsitish holatlarining saqlanib qolishi; Ish joylarida diskriminatsiya va teng imkoniyatlarning yetishmasligi; Huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yetarlicha rivojlanmaganligi; Ayollar huquqlarini himoya qiluvchi qonunchilik normalarining amalda to‘liq ishlamasligi yoki yetarlicha bajarilmasligi.

Ushbu muammolar ya’ni ayollar huquqlarini ta’minlash va bazi muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin: Ayollarning huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida maxsus ta’lim dasturlarini joriy etish; Gender tengligini ta’minlash bo‘yicha maxsus qonun va strategiyalarni ishlab chiqish hamda ularning ijrosini qat’iy nazorat qilish; Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik va diskriminatsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha samarali mexanizmlar ishlab chiqish; Ayollar uchun iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish, jumladan, ularga biznes va tadbirkorlik bilan shug‘ullanish uchun qo‘llab-quvvatlash dasturlarini yaratish; Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish va ilg‘or xorijiy tajribani milliy

qonunchilikka tatbiq etish lozim. Yuqoridagi takliflar amalga oshirilishi natijasida ayollar huquqlarini himoya qilish tizimi yanada mustahkamlanadi va jamiyatda gender tengligiga erishish yo‘lida muhim qadam tashlanadi.

Xulosa

Ayollarning huquqlarini himoya qilish nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatlardan ham dolzarb masala hisoblanadi. Xalqaro va milliy huquq normalari ayollarning huquqiy maqomini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. Xalqaro darajada BMT, Xalqaro mehnat tashkiloti va boshqa tashkilotlar tomonidan ayollarning huquqlarini kafolatlovchi huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo‘lsa, milliy darajada esa konstitutsiya va maxsus qonunlar asosida bu huquqlar himoya qilinmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ayollarning huquqlarini to‘liq ta’minalash uchun faqat qonunchilikni takomillashtirish bilan cheklanmay, balki uning samarali ijrosini ta’minalash, jamiyatda gender tengligi bo‘yicha tushunchalarni shakllantirish ham zarur. Shu nuqtai nazardan, davlat va nodavlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari va xalqaro hamkorlik doirasida olib borilayotgan sa’y-harakatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida ayollarning huquqlarini ta’minalash bo‘yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish, xalqaro tajribalarni o‘rganish va ularni milliy amaliyotga tatbiq etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023)
2. O‘zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida"gi Qonuni. (2019)
3. BMTning “Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etish to‘g‘risida”gi Konvensiyasi (CEDAW). (1979)
4. Inson huquqlari umumjahon deklaratasiysi. (1948)

5. Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) tomonidan qabul qilingan gender tengligi bo‘yicha me’yoriy hujjatlar. (Turli yillar)
6. European Court of Human Rights (ECHR) qarorlari va gender huquqlari bo‘yicha yondashuvlar. (2021)
7. Ayollar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan milliy va xalqaro dasturlar. (2022)
8. Smith, J. (2020). "Gender Equality and Legal Reforms: A Comparative Analysis." Cambridge University Press.
9. Karimova, N. (2021). "O‘zbekistonda gender siyosati va ayollar huquqlarining ta’minlanishi." Tashkent Law Review.
10. Davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan e’lon qilingan statistik ma’lumotlar va tahliliy hisobotlar. (2023)